



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Otabek Turdimurodov<sup>1</sup>  
Zulxumor Toshquvvatova<sup>2</sup>

- 1 – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif fakulteti o'qituvchisi  
2 – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif fakulteti talabasi

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA KASRLAR MAVZUSINI TEZ VA SAMARALI USULDA O'RGATISH METODIKASI

**Annotatsiya:** maqolada kasrlar mavzusini tez va samarali usullar yordamida o'quvchilarga o'rgatish , kasrlarni o'rgatishda geometrik shakillardan foydalanish , nafaqat misollarda balki masalalarda ham kasrlarni yechishda interfaol metodlardan , xususan “Soyabonlar ” , “Anvarjonga yordam ”, “ Zanjir” kabi metodlardan foydalanish haqida , to'g'ri va noto'g'ri kasrlarni o'rgatishni ajoyib usullari hamda to'g'ri kasrlar ustida sodda amallarni bajarish haqida fikr, mulohaza va takliflar o'rinn olgan .

**Kalit so'zlar :** Kasrlar , to'g'ri va noto'g'ri kasrlar, geometrik shakillar, nisbat, surat, maxraj, butun qism, interfaol metodlar , qism , hadlar , ta'rif va h.k

**Annotation :** The article is about teaching fractions to students using quick and effective methods , the use of geometric shapes in teaching fractions , the use of interactive methods to solve fractions not only in examples but also in problems , such as “Umbrellas” , “Help Anvarjon” , “ Chain” . There are ideas , feedback and suggestions on how to teach fractions and how to do simple operations on direct fractions.

**Keywords :** Fractions , right and wrong fractions, geometric shapes , ratio , figure , denominator , whole part , interactive methods , part , terms , definition , etc.k

**Аннотация:** Статья посвящена обучению учащихся дробям быстрыми и эффективными методами , использованию геометрических фигур в обучении дробей , использованию интерактивных методов решения дробей не только на примерах , но и в задачах таких как “Зонтики” , “ Помощь Анваржону “, “Цепочка “ Есть идеи отзывы и предложения как учить дроби и как делать простые действия над прямыми дробями .

**Ключевые слова** Дроби, правильные и неправильные дроби, геометрические фигуры , отношение ,цифра знаменатель , целая часть, интерактивные методы, часть термины ,определение и др.к

Boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘rganish doimo qiyin tuyuladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali o‘yinqaroq bo‘lganligi uchun matematikani o‘rganishda qiynalishadi.Lekin matematika hayotimizning ustuni hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarga kasrlar mavzusi qiyinchilik tug‘diradi.Chunki oddiy sonlarni o‘rganayotgan bolalar kasrlarni tushuna olmaydi. Biz bu galgi maqolamizda kasrlar mavzusini tez va oson o‘rganish bo‘yicha gaplashamiz.

### Ta’rif-1.




Kasr matematikada birining bitta yoki bir nechta qismdan (bo‘lagidan) iborat son. Kasr ikkita butun sonning nisbati bilan ifodalanadi: $\frac{n}{m}$  kabi.

Biz yuqorida qoidani qoidani bolalarga o‘rgatsak ularning tushunishi qiyin bo‘ladi.Shuning uchun bu mavzuni boshqacha usullar yordamida o‘rgatamiz.Masalan.

1 2

3

4




Avvalo ishni yuqoridagi shakllar qanday shakllar ? deb savol berishdan boshlaymiz.Keyin esa yuqoridagi shakllarning necha qismi bo‘yalgan? deb savol beramiz.





Biz birinchi rasmda  $\frac{1}{8}$  qismi, ikkinchisida  $\frac{2}{9}$  qismi, uchinchisida  $\frac{1}{3}$  qismi, to‘rtinchisida esa  $\frac{1}{4}$  qismi bo‘yalganini ko‘rib turibmiz.Demak, agar birinchi



aylananing bir qismi bo'yalsa, u holda, aylananing  $\frac{1}{8}$  (sakkizdan bir) qismi bo'yalgan deyiladi. Ikkinci rasmda ko'rganimizdek to'g'ri to'rtburchakning 2 qismi bo'yalsa, u holda to'g'ri to'rtburchakning  $\frac{2}{9}$  (to'qqizdan ikki) qismi bo'yalgan deyiladi. Demakshakllarning umumiy qismini „maxraj” , bo'yalgan qismini „surat” deb atar ekanmiz. Agar aylananing yoki to'rtburchakning hamma qismlari bo'yalgan bo'lsa unda bir butun shakl paydo bo'ladi. Shuning uchun surat va maxraj bir xil bo'lgan har qanday kasr 1 ga tengdir. Misol uchun:



Bu to'rtburchakning 4 ta qismi bo'yalgan va bundan  $\frac{4}{4} = 1$ . kasr hosil bo'ladi. O'rgangan bilimlarimizni mustahkamlash uchun „Bo'sh o'tirmay, bosh qotir” o'yindan foydalanamiz:



bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi va yuqoridagi shakllar tarqatiladi. O'quvchilar shakllarning bo'yalgan qismiga qarab kasrlarni yozishlari kerak bo'ladi. Tez va to'g'ri bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

Kasrlar haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Endi biz oddiy va noto'g'ri kasrlarni o'rganamiz.


### Ta'rif-2.

Maxraji suratidan katta bo'lgan kasrlar to'g'ri deyiladi. Masalan:  $\frac{3}{7}$  ,  $\frac{4}{10}$  va hokozo.

### Ta'rif-3.

Maxraji suratidan kichik bo'lgan kasrlar not'g'ri kasr deyiladi. Masalan:  $\frac{7}{4}$ ,  $\frac{15}{9}$  va hokozo.

Boshlang'ich sinf degan so'zlardan ko'ra qiziqarli bo'ladi. Shunday bilimizni mustahkamlash




o'quvchilariga metod , usul o'yin so'zini qo'llasak ekan yuqorida o'rgangan uchun „, Soyabonlar”



o‘yindan foydalanamiz. Bunda doskaga birinchi quyosh ramini yopishtiramiz.

Keyin hamma quyoshni yaxshi ko‘radimi deb so‘raymiz.Keyin esa quyoshning ustiga bulut yopishtiramiz



Bir kuni to‘g‘ri kasrlar va noto‘g‘ri kasrlar sayrga chiqibdi va birdan quyoshni bulut qoplab yomg‘ir yog‘a boshlabdi”,- deb yomg‘irlarni ham yopishtiramiz.

$$\frac{2}{4}, \frac{15}{9}, \frac{1}{8}, \frac{11}{10}, \frac{3}{2}, \frac{5}{9},$$



„Bolajonlar , bu kasrlarimiz yomg‘irda ivib ketmasligi uchun ularga yordam beramizmi ? “ – deb doskaga ikkita soyabon yopishtiriladi.Soyabonning biri qizil, biri ko‘k rangda bo‘ladi.Qizil soyabonning ustiga to‘g‘ri kasrlar, ko‘k soyabonning ustiga noto‘g‘ri kasrlar deb yoziladi.



To'g'ri kasrlar




Noto'g'ri kasrlar




“Ularga yordam berishimiz uchun to'g'ri va noto'g'ri kasrlarni bilishimiz kerak bo‘ladi”, - qani kim yordam qiladi?- deb so‘raladi.O‘quvchilar kasrlarni birin-ketin soyabonlar ostiga yopishtirishi kerak bo‘ladi.Bunday o‘yinlar bolalarni ham qiziqtiradi.Rasmlar chiziladi.Kasr sonlar faqat misollarda emas, balki masalalarda ham ishtirok etadi.Demak, masalalarda qatnashgan kasr sonlarni ham bilishim zarur ekan.

To'g'ri kasrlar



Noto'g'ri kasrlar





“Anvarjonga yordam” o‘yinidan foydalanib murakkab bo‘lmagan masalalardagi kasrlarni topishni o‘rganamiz.U quydagicha:

Anvarjon bir kuni beso‘roq sayr qilgani chiqib ketibdi.Yurib-yurib adashib qolibdi. Juda ham uyiga qaytgisi kelibdi.Uyiga qaytish uchun ko‘plab sinovlardan o‘tishi kerak ekan.Bolajonlar Anvarjonga yordam beramizmi ?



1  
Hozir mart oyi bo'lsa,  
biz yilning necha  
qismini o'tkizib  
yuborgan bo'lamic

2  
Bugun haftaning  
uchinchini kuni  
chorshanba bo'lsa, biz  
haftaning qancha qismini  
o'tkazib yubordik


3  
O'qituvchi uyga vazifa  
uchun 15ta misol bergan  
bo'lsa, siz uning 7 tasini  
yechgan bo'lsangiz  
misolning qancha qismini  
yechib bo'lgansiz




Xuddi shunday rasm ikkita beriladi, qaysi topsa yutgan guruhga guruh to‘g‘ri va to‘lliq javob hisoblanadi.Ya’ni Anvarjonga uyga qaytishiga yordam bergan hisoblanadi.Bolalar taxminan shunday fikrlab javob berishi kerak bo‘ladi: 1 Tabiiyki bir yilimiz 12 oydan iborat.Ya’ni bir yilni bo‘laklasak 12 qismdan iborat bo‘ladi.Mart oyi esa uchunchi oy hisoblanadi.Demak,  $\frac{3}{12}$  (o‘n ikkidan uch) qismini o’tkazib yuborgan bo‘lamiz. 2 Bir haftamiz yeti kundan iborat, chorshanba esa uchinchi kun hisoblanadi, Demak, biz haftaning  $\frac{3}{7}$  (yettidan uch) qismini o’tkazib yuboribmiz. 3 Umumiy 15 ta misol, yechilgan misol esa 7 ta. Demak,  $\frac{7}{15}$  (o‘n beshdan yetti) qismi yechilgan.




.Endi esa biz „Zanjir” o‘yini o‘ynaymiz.Bunda




ILMIY FA



ashri ht



g.acade



.or



Eng avvalo, shakllarning bo‘yalgan qismiga qarab kasrlar yoziladi. Masalan:

$$\frac{1}{4} + \frac{2}{4} - \frac{1}{4} + \frac{2}{4} = ?$$

Keyin esa kasrlarni yechish kerak bo‘ladi. Kasrlarni topib , ularni ustida amallarni to‘g‘ri va tez bajargan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. 5-sinf Matematika darsligi ,” O’zbekiston milliy ensklopediyasi” , Toshkent - 2007 ( M.A.Mirzaahmedov , A.A. Rahimqoriyev).
2. Nazarov X , Boymanov H , Norqulov L , Nurillayeva S “Boshlang’ich matematika kursi nazaryasi “.
3. “Boshlang’ich ta’lim “ jurnali.
4. 4-sinf Matematika fani darsligi , Toshkent \_ 2017.